



UDK: 913. (314)

Olimjon SHERXOLOV,
O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti dotsenti v.b, PhD
E-mail: osherxolov@gmail.com,
Karimbek XOLIQULOV
O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti talabasi

SamDU professori, g.f.d L.Ibragimov taqrizi asosida

BUXORO VILOYATI AHOLI PUNKTLARINING HUDUDIIY TARKIBI VA JOYLASHUVI

Аннотация

Mazkur maqolada Buxoro viloyatining aholi punktlari ularning hududiy tarkibi va joylashuvi yoritilgan. Aholi punktlari o'zgarishi ma'muriy-hududiy birliklar bo'yicha tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur viloyatning aholi punktlari o'rtasidagi o'rtacha masofasi va zichligi hududlar kesimida o'rganilgan. Aholi punktlari shakllanishiga ta'sir etuvchi tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa omillar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Aholi, aholi punktlari, aholi punktlari zichligi, aholi punktlari orasidagi o'rtacha masofa, tabiiy sharoit

НАСЕЛЕННЫЕ ПУНКТЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЙ СОСТАВ И РАЗМЕЩЕНИЕ

Аннотация

В статье рассматриваются населенные пункты Бухарской области, их территориальный состав и размещение. Проведен анализ изменений численности населения по административно-территориальным единицам. Также были изучены средние расстояния и плотность между населенными пунктами в этой области по регионам. Изучены природные, социально-экономические, политические и другие факторы, влияющие на формирование поселений.

Ключевые слова: Население, населенные пункты, плотность населенных пунктов, среднее расстояние между населенными пунктами, природные условия.

SETTLEMENTS OF BUKHARA REGION TERRITORIAL STRUCTURE AND LOCATION

Annotation

The article examines the settlements of Bukhara region, their territorial composition and location. The analysis of population changes by administrative-territorial units was conducted. The average distances and density between settlements in this area by region were also studied. Natural, socio-economic, political and other factors influencing the formation of settlements were studied.

Key words: Population, settlements, density of settlements, average distance between settlements, natural conditions.

Kirish. Aholi punktlarining hududiy tarkibi va joylashishini o'rganish aholi geografiyasidagi muhim tadqiqotlar sirasiga kiradi. Shuningdek, aholi punktlari ko'plab sohalar (quruvchilar, iqtisodchilar, kadastr, shaharshunoslar va h.k) uchun ham tadqiqot obyekti hisoblanganligi bois har bir fan o'z tadqiqoti doirasida muhim izlanishlar, yunalishlarni belgilab oladi. Shunday ekan iqtisodiy geografik tadqiqotlarda aholi punktlari joylashishi ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish nuqtai-nazaridan tadqiq etiladi.

Aholining doimiy yashaydigan, asosiy faoliyati o'tadigan, ehtiyojining hech bo'lmaganda ma'lum bir qismini qondiradigan hududlar - bu aholi punktlaridir. Aholi punktlarining asosan ikki turi shahar va qishloqlar ham makon va zamonda tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-demografik hamda siyosiy omillarga bog'liq holda o'zgarib turadi. Geografik o'rni to'g'ri tanlangan aholi punktlarining rivojlanishi tez va o'zgarishlarga moslashuvchan bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Aholi punktlarining hududiy tarkibi va joylashishini tadqiq etish bilan ko'plab olimlar, jumladan P.P.Semyonov-Tyanshanskiy, V.P.Semyonov-Tyanshanskiy, N.N.Baranskiy, R.M.Kabo, S.A.Kovalev, V.V. Pokshishevskiy, Y.G.Saushkin, H.H.Kolosovskiy va boshqalar shug'ullanishgan bo'lsa, mahalliy olimlardan esa A.S.Soliyev, M.R.Bo'riyeva, Z.N.Tojiyeva, M.A.Kadirov, Sh.Z.Jumaxanov, A.M. Mavlonov, A.U.Sattorov, N.J.Embergenov, O.I.Sherxolov, B.M.Musayev va boshqalar muhim tadqiqotlar olib borgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Rus olimlaridan N.N.Baranskiy va R.M.Kabolar aholini geografik jihatdan o'rganish zarurligini asoslab, aholi punktlarini tavsiflash metodologiyasini ishlab chiqqan bo'lsa, N.I.Lyalikov esa birinchi marta MDHning qishloq aholisini har tomonlama tavsiflashni ta'kidlagan. "Aholi punktlari faqatgina aholi yashaydigan joylar bo'lib qolmasdan, balki aholi mehnat faoliyatini olib boradigan ishlab chiqarish markazlari hamda iqtisodiy aloqalar qiladigan joylar hisoblanadi"[4]. Aynan shu yondoshuv iqtisodiy geografiyada muhim o'rin tutadi. S.A.Kovalev "Aholi manzilgohlari joylashishi - bu odamlar hayoti va turmushi, zaruriy moddiy shart-sharoitni yaratishi, yashashi uchun mo'ljallangan aniq bir joy yoki aholi manzilgohlari joylashishi ma'lum bir hududdagi aholi manzilgohlari yig'indisi"[5] sifatida qarashni taklif etadi.

Aholi punktlari joylashishining iqtisodiy geografik xususiyatlarini ochib berish shaharlar va qishloqlarni rivojlantirishda alohida o'rin tutadi. Taniqli olima Z.N.Tojiyeva ta'kidlashicha "Aholi va aholi punktlarining joylashishi - bu jamiyatni tashkil etishning hududiy shakli, aholining hudud bo'ylab taqsimlanishidir"[10]. Aholi punktlarining hududlar bo'yicha tarqalishi birinchi navbatda oqar suv, tuproq, iqlim va relyef kabi tabiiy omillarga bog'liqligini unutmaslik lozim. Tadqiqot obyekti bo'lgan Buxoro viloyatidagi aholi punktlarining shakllanishida aynan, suv omili, xususan Zarafshon daryosi va kanallarning ahamiyati kattadir. Bundan tashqari, hududdan qadimda Buyuk ipak yo'lining o'tganligi, Buxoro Amirligi(xonligi)ning markazi bo'lganligi, bugungi

kunda respublikani shimoli-g'arb va janubi-g'arb davlatlari bilan bog'laydigan zamonaviy avtomobil va temir yo'llar o'tganligi, shuningdek, hududidan turli foydali qazilmalar (neft va gaz) topilib ishga tushirilganligi asosiy sabab bo'lgan desak xato bo'lmaydi.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, Buxoro viloyati respublikadagi ma'muriy-hududiy birliklar ichida maydonining kattaligi ko'ra faqat Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyatidan keyingi o'rinni egallaydi.

1-jadval

Buxoro viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishi (01.01.2025)

Ma'muriy-hududiy birliklar nomi	Maydoni (ming km ²)	Tumanlar (ta)	Shaharlar (ta)	Shaharchalar (ta)	Qishloq aholi punktlari (ta)
Buxoro viloyati	40,22	11	11	68	1473
Shaharlar:					
Buxoro	0,07		1		14
Kogon	0,02		1		
Tumanlar:					
Olot	3,23	1	1	8	62
Buxoro	1,32	1	1	6	162
Vobkent	0,29	1	1	3	186
G'ijduvon	3,84	1	1	13	252
Kogon	0,50	1		2	134
Qorako'l	8,69	1	1	12	91
Qorovulbozor	2,20	1	1		6
Peshku	8,72	1		4	131
Romitan	2,45	1	2	3	153
Jondor	5,17	1		9	138
Shofirkon	3,72	1	1	8	144

Jadval Respublika statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Mazkur viloyat ma'muriy-hududiy tuzilishiga ko'ra 11 ta tuman, 11 ta shahar (shundan 2 tasi viloyat bo'ysunuvdagi), 68 ta shaharcha hamda 1473 ta qishloq va ovullardan tashkil topgan (2025-y). Aynan qishloq aholi punktlari soniga ko'ra viloyat faqat respublikada Samarqand viloyatidan keyingi o'rinni egallaydi. Tadqiqot obyekti maydoni G'ijduvon tumani tarkibidagi Zafarobod shaharchasining Navoiy viloyati Konimex tumani tarkibiga o'tkazilishi munosabati bilan 2018 yilga nisbatan 0,10 ming km.kv.ga qisqargan. Viloyat tumanlarning eng yirigi Peshku va Qorako'l tumanlari bo'lib, mazkur tumanlar birgalikda viloyat maydonining 43,3 foizini egallaydi. Eng katta va eng kichik tumanlar maydoni o'rtasidagi farq 30 barobardan ortiqni tashkil etadi. Bunday katta farqning vujudga kelishida tabiiy sharoit omili muhim hisoblanadi. Ushbu viloyat tumanlari ichida aholi punktlari soniga ko'ra yetakchi o'rinni G'ijduvon (266 ta), oxirgi o'rinni esa Qorovulbozor (7 ta) tumanlari egallaydi. Mazkur tumanlar shahar va qishloq aholi punktlari soni ko'ra ham huddi shunday o'rinlarda turadi. Tumanlar maydonining yiriklari cho'l hududlarda joylashganligi bois ularda aholi punktlari soni kamdir. Qishloq aholi punktlari soni kam bo'lgan tumanlarga Qorovulbozordan keyin Olot (62 ta), Qorako'l (91 ta) Peshku (131 ta) tumanlari turadi.

Aholi punktlari joylashishining muhim ko'rsatkichlaridan biri ularning zichligi va orasidagi o'rtacha masofasi hisoblanadi. Aholi punktlari qancha zich va ular orasidagi masofa shuncha yaqin bo'lsa, u hududning tabiiy sharoiti ancha qulay, ayniqsa suv resurslari bilan yaxshi ta'minlangan bo'ladi. Bunday hududlarda bir tomondan ijtimoiy soha obyektlarini qurish va joylashtirish oson kechsa, ikkinchi tomondan esa geoekologik holati yomonlashib boradi, ya'ni hududga demografik bosim ham ortadi. Tarqoq hududlarda esa buning aksi kuzatiladi[11]. Qishloq aholi punktlari zichligi 100 kv.km.ga, shahar aholi punktlari zichligi esa 1000 kv. km.ga nisbatan o'lchanadi. Aksariyat hollarda tadqiqot hududlarida shaharlar soni qishloqlar sonidan kam bo'ladi.

2-jadval

Buxoro viloyati qishloq aholi punktlarining o'rtacha zichligi va masofasi (2025-y.)

Hududlar nomi	Hududi (ming km ²)	Qishloq aholi punktlari	Har bir aholi punktiga to'g'ri keladigan o'rtacha yer maydoni km ²	Har 100 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi punktlari soni, ta	Aholi punktlari orasidagi o'rtacha masofa, km
Buxoro viloyati	40,22	1473	27,3	3,7	5,2
Olot	3,23	62	52,1	1,9	7,2
Buxoro	1,32	162	8,1	12,3	2,9
Vobkent	0,29	186	1,6	64,1	1,2
G'ijduvon	3,84	252	15,2	6,6	3,9
Kogon	0,50	134	3,7	26,8	1,9
Qorako'l	8,69	91	95,5	1,0	9,8
Qorovulbozor	2,20	6	366,7	0,3	19,1
Peshku	8,72	131	66,6	1,5	8,2
Romitan	2,45	153	16,0	6,2	4,0
Jondor	5,17	138	37,5	2,7	6,1
Shofirkon	3,72	144	25,8	3,9	5,1

Jadval Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Mazkur viloyatdagi har bir qishloqqa o'rtacha 27,3 km² yer maydoni to'g'ri keladi. Aholi punktlari soni kam bo'lgan Qorovulbozor tumanidagi qishloqlarning har biriga 366,7 km², eng kami esa Vobkent tumani qishloqlariga 1,6 km² yer maydoni to'g'ri keladi. Viloyatda har 100 kv.km. maydonga to'g'ri keladigan qishloq aholi punktlari soni qariyb 4 tani tashkil etgan holda bu ko'rsatkich ham tumanlar maydonining katta-kichikligi va ularda aholi punktlari sonining bir xil emasligiga ko'ra turlichadir. Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha Vobkent (64 ta) va Kogon (27 ta) tumanlari yuqori o'rinni, Qorovulbozor (0,3 ta), Qorako'l (1 ta) va Peshku (1,5) tumanlari quyi o'rinlarni egallaydi.

Tadqiqot obyektdagi qishloqlar o'rtasidagi o'rtacha masofa 5,2 km.ni tashkil etadi. Bu bo'yicha ham qishloq tumanlari bir-biridan ajralib turadi. Qishloq aholi punktlari orasidagi o'rtacha masofa Qorovulbozor tumanida 19,1 km bo'lsa, eng yaqini Vobkent tumaniga (1,2 km) to'g'ri keladi. Aholi punktlari o'rtasidagi masofaning yaqinligi ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining yaxshi rivojlanishiga, bir-biri bilan turli aloqalarning shakllanishiga, xizmat ko'rsatish sohalarining samarali faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda tadqiqot obyektdagi aholi punktlarining asosiy qismi viloyat markazi va uning atrofida, shuningdek, Zarafshon daryosining quyi qismida hamda Amu-Buxoro mashina kanali bilan sug'oriladigan hududlarda ancha zich joylashgan. Qolgan hududlarda aholi punktlari juda tarqoq asosan, foydali qazilmalar qazib olinadigan joylarda hamda chorvachilik xo'jaliklari tashkil etilgan hududlardagina yakka-yakka holdagi kichik aholi punktlari uchraydi.

ADABIYOTLAR

1. Ембергенов Н. Ж. Қорақалпоғистон республикаси аҳолисининг ўсиши ва жойлашишидаги ўзгаришлар. –г.ф.н. дисс-Т.: ЎзМУ, 2011. – 148 б.
2. Ibragimov, L., Sherxolov, O., Musayev, B., Boboyev, S., Sobirova, M., & Boratova, G. (2024). Industrial development and assessment of its impact in Samarkand region-a GIS mapping-based study. In E3S Web of Conferences (Vol. 590, p. 06002). EDP Sciences.
3. Kadirov M.A., Sherxolov O.I. Samarqand viloyatida qishloq aholi punktlarining joylashishi, rivojlanishi va kartalashtirilishi // Geodeziya, kartografiya va kadastr sohalarini rivojlantirishning dolzarb muammolari (Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari) 28-29 noyabr, Samarqand 2014. – 80-82 b.
4. Kadirov M.A. Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan. T.: 2019. 320 b.
5. Ковалев С.А. Сельское расселение (Географическое исследование). – М.: МГУ, 1963. – 372 с.
6. Мавлонов А.М. Чўл шароитида шаҳарларнинг шаклланиш ва ривожланиш муаммолари (Бухоро вилояти мисолида). –г.ф.н. дисс-Т.: Бухоро, 2009. – 182 б.
7. Сатторов А.У. Сурхондарё вилояти қишлоқ аҳоли пунктларининг ривожланиш ва жойлашиш хусусиятлари. – г.ф.н. дисс. – Термиз, 2009. – 215 б.
8. Soliyev A.S. O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. -T., 2014. – 360 b.
9. Tojiyeva Z.N., Sherxolov O.I. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning zamonaviy muammolari: Jamiyatni hududiy tashkil etish // «Zamonaviy geografik tadqiqotlar: nazariya, amaliyot, innovatsiya. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya». Samarqand, 2023. B. 470-473.
10. Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari. – g.f.d. diss – T.: O‘zMU, 2017. – 206 b.
11. Sherxolov O.I. Navoiy viloyati aholisi o‘sishi va joylanishining geografik muammolari. Fal.fan. dok. ...diss-T.,2023.-152 b.